

INGLIZ TILIDAGI IBORALARNING KOMMUNIKATIV VAZIFASI VA ULARNING TARJIMA USULLARI

O.O. Qo'ldoshov¹

Annotatsiya:

Ushbu maqoladi ingliz tilidagi iboralarning kommunikativ vazifalari va ularning tarjima usullari tahlil qilingan. Milliy xususiyatga ega iboralarning tarjima tilida ifodalanishi murkkabliklari misollarda ko'rib chiqilgan. Bilvosita qilingan asar tarjimalari misolida iboralarning o'z kommunikativ vazifalarini yo'qotganligi ko'rsatib o'tilgan va ularga mos variantlar taklif qilingan.

Kalit so'zlar: Iboralar, ko'chma ma'no, hissiy ta'sirchanlik, bo'yoqdorlik, murakkab semantika, milliy o'ziga xoslik, bilvosita tarjima, ekvivalent, milliy xususiyatli iboralar.

doi: <https://doi.org/10.2024/y8qvn76>

Tarjimada iboralarni fikrni bayon etishga yo'naltirish va kommunikatsiyaga kiritish jarayoni oson kechmaydi, chunki bu jarayon bir nechta faktorlarni o'z ichiga oladi. Bular, so'zlarning turli xil bog'lanishi, omonimlar, sinonimlar, frazeologik birliklarning turli xil ma'noni berishi polisemiya va boshqalar.

Bulardan tashqari frazeologik birliklarda o'sha xalqqa mansub bo'lgan uslubiy bo'yoqdorlik mavjudki, ba'zi bir boshqa tillarda u uchramasligi ham mumkin. Iboralarning asosini tushunishda yuqorida qayd etilganlarni esda saqlash lozim.

Tillararo shaklan, ham mazmunan mos keladigan iboralar uchrasada ko'p hollarda ular tarjimon mazmun planidan kelib chiqqan holda har bir iboraga mos o'z tilida muqobil variantlarini topishi yoki so'zma-so'z tarjima qilishi mumkin. Shunga ko'ra, ayni bir xil iborani bir qancha o'rinlarda, ma'noga qarab, har xil o'girishi mumkin. Binobarin, har qanday hollar uchun ham mos keladigan tayyor variantini berish amri mahol. Turli tillarda ayni bir xil ma'noni ifodalovchi maqol, matal va idiomalar aynan bir xil asosga, ayni bir narsaning bir qancha jihatlariga yoki tamoman boshqa ob'ektlarga tayangan holda yaratilgan bo'lishi mumkin: Masalan, *Speak of the devil and he will appear*, Bo'rini yo'qlasang qulog'i ko'rinadi.

Iboralar ko'chma ma'no kasb etgan idiomatik birliklar bo'lib, bunday birikmalar kishilik jamiyatida aloqani ta'minlashda juda katta ahamiyatga ega. Ular kishilarga biror xabarni yetkazishdan tashqari nutqga hissiy ta'sirchanlik qo'shib, yozma materiallardagi iboralar o'quvchining hissiyotiga ta'sir o'tkazadi, estetik, adabiy va madaniy ma'no kasb etadi. Aslyat matnida muallif tomonidan ibora qo'llanilar ekan uni tarjima matnida ham imkon qadar saqlab qolish tarjimon oldida turgan juda murakkab bir masaladir. Iboralarning semantik xususiyati juda murakkab birlikni tashkil etib ularni ma'nosini tarjima matnida saqlab qola olishlik uchun quyidagi eng asosiy beshta aspektga e'tibor qaratish lozim: 1) ko'chma ma'nodaligi; 2) badiiyligi; 3) hissiy ta'sirchanligi; 4) uslubiy bo'yoqdorligi; 5) milliy xususiyatga ega ekanligi.

Iboralarning ko'chma ma'no kasb etishi bu ularning eng asosiy elementidir. Misol uchun "Red tape" – buyrokratizm ma'nosida, "to kick the bucket" – vafot etmoq, "to wash dirty linen in public" – oilaviy sirni oshkora qilmoq.

Iboralar ijobiy, salbiy va neytral xarakterga ega bo'lishi mumkin. Masalan, "to kill two birds with one stone" (bir o'q bilan ikki quyovni urmoq) iborasi bu ijobiy ma'no kasb etsa, "to

¹ O.O. Qo'ldoshov, SamDCHTI dotsenti

find a mare's nest" kulgili xatoni ifodalab salbiy ma'no kasb etadi va "Rome was not built in a day" (Rim bir kunda qurilmagan) iborasi esa neytral xarakterga ega ibora hisoblanadi.

Iboralar uslubiy qo'llanilishiga qarab ham farqlanishi mumkin, ya'ni ular kitobiy "to show one's true colours", og'zaki "to be a pain in the neck" va milliy xarakterga egaligi "to set the Thames on fire" and "to carry coals to Newcastle".

Iboralarning murakkab semantikaga egaligi ularni tarjima qilishni bir muncha og'irlashtiradi. Asliyat tilidagi iboralarning tarjimada kommunikativ maqsadini saqlash uchun, avvalo, tarjimon, ibora semantikasining asliyat matnidagi iboraga to'liq mos keladigan tarjima tili iborasini ishlatishga harakat qilishi lozim. Masalan, "to pull chestnuts out of the fire for smb." — таскать каштаны из огня для кого-либо. Birov uchun o'zini o'tga-cho'qqa urmoq.

Ikkinchidan, asliyat iborasi shakli va adabiy ma'nosi o'xshamasada, bir xil ko'chma ma'noga, hissiy ta'sirchanlik va uslubiy xarakterga ega tarjima tili iborasi bilan tarjima qilinishi mumkin. Masalan, "make hay while the sun shines" — куй железо, пока горячо. – temirni qizig'ida bos. Uchinchidan, asliyat tilidagi ibora so'zma-so'z, shakli saqlangan holda tarjima qilinishi ham mumkin. Masalan, "He calls the things by their true names." U har narsani o'z nomi bilan ataydi. (haqiqatni yuzga aytadi ma'nosida). To'rtinchidan, ibora tarjima qilinmasdan ma'nosi izohlab berilishi ham mumkin.

Tarjimada iboralarning kommunikativ vazifasini saqlashda bilvosita tarjima ularning ma'no nozikligiga anchagina putur yetkazishi mumkin. Buni buyuk amerika adibi Mark Tvenning "Yanki va qirol" asarida qo'llanilgan iboralar, ularning asar mazmunida tutgan o'rni va tarjimasi borasida ham kuzatish mumkin. Ya'ni tarjimada ba'zi hollarda iboralarga e'tibor berilmasdan tashlab ketilgan yoki o'sha ibora oddiy netral so'z bilan tarjima qilingan holatlar ham kuzatiladi. Asarda ishlatilgan barcha iboralar asarga ko'rk, joziba berish bilan birga o'ziga xos ichki, yashirin ma'no ham kasb etadi. Masalan, muallif asarning boshlanish sahifalarida notanish kishi monologidan quyidagi tarixiy iborani keltirib o'tadiki, bu ibora Amerikaning mustamlaka davriga borib taqaladi. Chunki o'shanda tub amerikaliklar Yevropadan ko'chib kelgan oq tanli kishilarni Yanki deb ataganlar. Adib esa o'z qahramonini Yevropadagn ko'chib kelgan umuman tub aholidan emasligiga e'tibor qaratib "Yankee of the Yankees" iborasini ishlatadi:

So I am a Yankee of the Yankees and practical;

Я янки из янки и, как подобает настоящему янки, человек практичный;

G'irt yankining o'zginasiman, haqiqiy yankilarga o'xshash omilkor odamman.

Yuqoridagi misolda ko'rinib turibdiki, asliyat matnida "Yankee of the Yankees" birikmasi, rus tiliga "янки из янки", o'zbek tiliga esa "g'irt yankining o'zginasi" tarzida o'girilgan. Bunda rus tarjimoni birikmani so'zma-so'z tarjima qilgan bo'lsa, o'zbek tarjimoni unga bir oz bo'yoqdorlik kasb etgan holda, qolaversa og'zaki nutq iborasi orqali tarjima qilgan.

Ingliz tilidagi yana bir "that goes without saying" shaklidagi ibora bilan ifodalangan fikr tarjimada na rus tilida na o'zbek tilida ibora bilan ifodalanmagan, faqatgina neytral so'zlar bilan tarjima qilingan xolos. Ushbu misol orqali biz asliyat matnida ishlatilgan iboraning tarjima tiliga saqlanmasligi holatini guvohi bo'lmoqdamiz:

Well, a man like that is a man that is full of fight that goes without saying.

На такой должности надо быть человеком боевым - это само собой понятно.

Bunaqa lavozimda ishlash uchun odam abjir, jangari bo'lish kerakli o'z-o'zidan ma'lum.

Quyidagi misolda o'zbek va rus tillarida mos varianti mavjud bo'lmagan "Never mind" iborasining tarjimasiga e'tibor qaratamiz. Bu iboraning o'quv qo'llanma va lug'atlarda berilgan tarjimalari "tashvishlanmang, hechqisi yo'q, e'tibor bermang" shakllarida uchraydi. Rus tarjimoni ushbu iborani "обойдусь", shaklida, o'zbek tarjimoni esa "bir gap bo'lar" shaklida o'giran. Albatta tarjimonlar ushbu vaziyatda matn va voqealar rivojidan kelib

chiqqan holda iborani o'zgartirib berishni maqsadga muvofiq deb bilishgan. Chunki tarjimonlar iboraning asl ma'nosidan ancha yiroq birliklarni qo'llagan. Qisman muvofiq tarzda tarjima qilinadigan "to lose one's temper" (achchiqlanmoq, jahli chiqmoq) iborasi rus tiliga "вышел из себя" shaklida, o'zbekcha tarjimada "tutoqib ketdim" tarzida o'girilgan. Ushbu birikmaning ham tarjimasi matn va voqealar rivojidan kelib chiqadigan bo'lsak, tarjimonlar uning o'rniga yaxshi ekvivalentlardan foydalangan. Rus tarjimoni ushbu iboraning asl ma'nosiga yaqinroq borgan, lekin bizning nazarimizda o'zbek tarjimoni ushbu salbiy ma'noli iborani bir oz ijobiy tarafga o'zgartirib, iboraning ma'nosini bir oz kuchsizlantirib qo'ygandek go'yo:

I got along, and said never mind, it isn't any matter, and dropped it out of my mind. Я говорил себе: обойдусь, ехал дальше и тотчас же забывал о нем. O'zimcha, ke bir gap bo'lar, derdimda, yo'limda davom etaverardim.

Endi esa ingliz tilidagi "to make up one's mind" (qaror qabul qilmoq, niyat qilmoq) iborasining rus tilining ta'sirida tarjima qilinganligining sezilib qolganligiga guvoh bo'lamiz. Zero, rus tilidagi "Я дал себе слово" birikmasi o'zbek tiliga so'zma-so'z tarjima qilinganda "o'z-o'zimga so'z berdim" tarzida bo'ladi. Lekin aslyatdagi "made up my mind" iborasining asl ma'nosi boshqacharoq. Ushbu ibora "shunday qilishga qaror qildim" shaklida tarjima qilinsa ham maqsadga muvofiq bo'lardi:

I made up my mind that I would carry along a reticule next time.

Я дал себе слово, что в следующий раз захвачу с собой в дорогу дамскую сумочку.

Odamlar men haqimda nima deyishsa deyishaversin, lekin keyingi safar ayollarning sumkchasini olivolaman deya o'z-o'zimga so'z berdim.

Keyingi misolda "to come to oneself" "o'ziga kelmoq, hushiga kelmoq" iborasi rus tiliga "проснувшись" ya'ni "uyg'onganimda" ma'nosida ifodalanganligi uchun o'zbek tarjimoni ham ushbu iborani o'z asl ma'nosi "o'zimga kelganimda, hushumga kelganimda" shaklida emas balki ruscha tarjima ta'siri ostida "ko'zimni ochganimda" tarzida tarjima qilgan. Zero, ko'zimni ochdim birikmasi bu o'zbek tilida ko'p hollarda uyqudan uyg'onishni ifodalaydi:

When I came to myself again and began to listen.

Проснувшись, я заметил, что опять пропустил целую главу.

Ko'zimni ochganimda qissaning yana bir bobini o'tkazib yuborganligimni sezdim.

Ingliz tilida "a night cap" iborasi aslida uyqudan oldin ichib yotiladigan ichimlikni anglatadi, lekin ushbu asarda bu ibora boshqa usulda, rus tilida "на сон", o'zbek tilida esa "uyquga yotish oldidan" shaklida tarjima qilingan. Bu holatda ibora ikkinchi ma'no kasb etmoqda. Asar ma'nosida kelib chiqqan holda iboraning boshqa ma'no kasb etishi, albatta, tarjimonga qiyinchilik tug'diradi:

Midnight being come at length, I read another tale, for a nightcap – this which here follows, to wit;

Была уже полночь, когда я прочел на сон грядущий еще один рассказ - о том...

Uyquga yotish oldidan tag'in bir hikoyani o'qib chiqqanimda yarim kecha bo'lib qolgan edi.

Ingliz tilida ibora shaklida ifodalangan fikrning rus yoki o'zbek tilida oddiy erkin bog'lanishli so'z birikmalari bilan ifodalanishini quyidagi misolda ham guvohi bo'lishimiz mumkin. Bunda inglizcha "can't make head or tail of something" ya'ni biror narsani tushunmaslikni, anglab yetmaganlikni ifodalovchi ibora rus va o'zbek tillarida oddiy so'zlar bilan o'girilgan, aslyatdagi ibora tarjima tilida ham ibora shaklida tarjima qilinmagan. Ushbu iboraning oddiy so'zlar bilan ifodalanishi asar mazmunini ifodalashda kamchilikka olib kelmagan, lekin tarjimon ushbu iborani muqobil ibora shaklini o'zbek yoki rus tilida topib tarjima qilganda yanada maqsadga muvofiq bo'lardi:

That she should be startled at me instead of at the other man, was too many for me; I couldn't make head or tail of it.

И я никак не мог понять, почему девочку поразил я, а не мой спутник;

Qizchanning hamrohingma emas, menga bu qadar hayratlanib qaraganining boisini hech anglolmadim.

O'zbek yoki rus tiliga tarkibidagi so'zlardan ma'nosini ifodalab bo'lmaydigan ingliz iboralari talaygina. Albatta, tarjimon bunday iboralarni ingliz frazeologik lug'atidan foydalanmagan holda ma'nosini chiqarib olishi juda murakkab holat. Lekin bu asarda o'zbek tarjimoni rus tili orqali tarjima qilganligi sababli, ingliz iboralariga murojaat qilmagan. Chunki o'sha ingliz iborasi rus tiliga ham ibora bilan tarjima qilingan, o'zbek tarjimoni ham uni o'zbek tilida muqobili mavjudligi sababli osongina o'giran. "Pull oneself together" va "for somebody's sake" iboralari quyidag misollarda o'z muqobillarini topgan va iboralar o'z kommunikativ ahamiyatini saqlab qolgan:

"Get up. Pull yourself together; look me in the eye. Do you know why I laughed?" "No - but for our blessed Lady's sake, do it no more."

Встань. Возьми себя в руки. Посмотри мне в глаза. Ты знаешь, отчего я смеюсь? - Нет, не знаю, но, ради пресвятой богородицы, не смейся больше.

Tur o'rningdan, O'zingni bosib ol. Ko'zingma qara. Bilasanmi nimadan kulayapman? - dedim. -Yo'q, bilmayman, lekin aziz avliyolar haqqi, boshqa kulma.

Aytib o'tilgan fikrlardan iboralar fikrni aniq, lo'nda va obrazli tarzda bayon etishda nutqimiz uchun zaruriy vosita hisoblanishi ayon bo'ldi. Iboralar har qanday, yozuvchi yoyinki notiq uchun ulkan xazina bo'lib, ulardan ustalik bilan foydalanish yozuvchining asarini, notiqning nutqini pur ma'noli va jozibali qiladi, aytmoqchi bo'lgan fikrini obrazli ifodalashga yordam beradi, badiiy jihatdan g'oyat ta'sirchan bo'lishiga olib keladi.

Mazmunan o'xshash ikki til iboralari tarjimada hamma vaqt bir-birlarini almashtira olmaydi. Buning sababi ayrim iboralar tarkibida ular mansub bo'lgan xalqlar turmush tushunchalarini aks ettiradigan qismlarning mavjudligidadir. Ba'zi milliy xususiyatli iboralar esa tarjima tilida o'z muqobillariga ega emaslar. Bunday til birliklari o'zbek tiliga tarjima amaliyotida qaror topgan turli usullar yordamida talqin etiladi. Bu usullar ijobiy fazilatlar bilan birga salbiy xislatlarga ham ega bo'lib, tarjimaning muvaffaqiyati mazkur usullardan o'rinli va mohirona foydalanishga bog'liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- [1]. Salomov G'. *Til va Tarjima*. T., 1966. 267 b.
- [2]. Salomov G'. *Tarjima nazariyasi asoslari*. T., 1966. 234 b.
- [3]. Sultonova D. «Bevosita tarjima saboqlari.» *Samarqand*. 2005. 115 b.
- [4]. Sultanova D. *A manual of Translation*. Samarkand. - 2005. - 98 p.